

# **Termiz shahrida navbatdagi matbuot anjumani bo'lib o'tdi.**



Termiz shahrida navbatdagi matbuot anjumani bo'lib o'tdi.

Bugun, 30 iyun kuni Termiz shahar hokimligida shahar maktabgacha ta'lim bo'limi mudiri A.Xolto'raeva ishtirokida“ shaharda Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tizimida amalga oshirilayotgan ishlar mavzusiga bag'ishlangan matbuot anjumani o'tkazildi. Anjuman davomida bugungi kun tahlillarda Maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 2018 yildagidan 3 barobarga 33 tadan 90 taga, tarbiyalanuvchilar soni esa 2,5 barobarga 4810 nafardan 10665 nafarga, 41,2 foizdan 73,8 foizga oshganligi haqida ma'lumot berib o'tildi. Matbuot anjumanida sohaga tegishli mas'ullar va hokim maslahatchisi hamda ijtimoiy tarmoq faollari qatnashdilar.